# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING O'RNI

**Otaboyeva Nargiza Nurulla qizi**
*Jizzax shahar 18-DMTT uslubchisi*

**Annotatsiya**: *Bolalarning ertangi kuni qanday bo'lishi, ko'p jihatdan, ularning bugungi kundagi ta'lim-tarbiyasiga bog'liq. Ushbu maqolada maktabgacha talim tashkilotlarda mashg'ulotlarni tashkil etishda tarbiyachining ahamiyati haqida so'z borgan.*

**Kalit so'zlar**: *ta'lim, ma'naviyati yuksak, aqlan yetuk, ta'lim-tarbiya, keng ko'lamlii islohotlar, ijtimoiy muhit, ta'lim samaradorligi, innovatsiya, amaliyotda joriy etish, ta'lim tizimi.*

**Abstract**: *How children will be tomorrow largely depends on their education today. This article talks about the importance of the educator in organizing activities in preschool educational organizations.*

**Key words**: *education, high spirituality, mentally mature, education, large-scale reforms, social environment, educational efficiency, innovation, implementation, educational system.*

**Аннотация**: *Какими будут дети завтра, во многом зависит от их образования сегодня. В данной статье говорится о значении воспитателя в организации деятельности в дошкольных образовательных организациях.*

**Ключевые слова**: *образование, высокая духовность, духовно зрелый, образование, масштабные реформы, социальная среда, эффективность образования, инновации, внедрение, образовательная система.*

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga etishida maktabgacha ta'lim tarbiyasi juda - muhim o'rin tutadi. Buning uchun esa tarbiyachi va pedagoglar o'z ustlarida muntazam izlanishlari, kirib kelayotgan innovatsiyalarni amaliyotda joriy etishlari ta'lim tizimini takomillashtirishda, ta'lim samaradorligining oshishida muhim o'rin egallaydi. Jumladan, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" o'quv dasturiga kiritilgan integratsiyalashtirilgan mashg'ulotlarni yaratish va ularni amaliyotda qo'llash maqsadi bugungi kun dolzarb masalalaridan biridir bo'lib kelmoqda .

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlii islohotlar, rivojlanib borayotgan ta'lim-tarbiya taraqqiyoti asrida ota-onalar, pedagoglar – tarbiyachilar bolalarga bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ularning yoshiga mos va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kerakli mashg'ulotlarni tashkil etishlari, ma'naviyati yuksak, aqlan yetuk, atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qila

oladigan, muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan komil inson qilib voyaga yetkazish lozimligini tobora anglab yetmoqdalar. Bolalarning ertangi kuni qanday bo‘lishi, ko‘p jihatdan, ularning bugungi kundagi ta’lim-tarbiyasiga, ular yashab, nafas olayotgan ijtimoiy muhit bilan bog‘liqdir.

Bundan tashqari Davlat talablarida tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalari mavjud bo‘lib, har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan) iboratdir. Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko‘zda tutadi.

Bundan kelib chiqib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, integralashtirilgan mashg‘ulotlarni tashkillashtirishda bir xil faoliyatni integratsiyasi (masalan plastilindan alohida predmetlarni yasash, syujetli tasvirlar hosil qilish) yoki ushbu faoliyatni bajarish texnikasining integratsiyasi (masalan, barmoq bilan chizish texnikasi, bo‘yoqni surish, purkash texnikasi) sodir bo‘ladi, buning natijasida bolalar faoliyat turining yangi usullarini o‘zlashtirib boradilar.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining zamonaviy tendensiyalaridan biri-ta’lim mazmunini integratsiyalash asosida maktab ta’limiga tayyorlash, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida ijodkorlikka o‘rgatishda turli faoliyat turlari (badiiy adabiyot, nutq o‘stirish, tabiat bilan tanishtirish va hokazo) bilan uyg‘unlashtirish bolalarning emotsional hissiyotiga ta’sirini oshirish imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga oid davlat talablarida mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, jahon tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. T L.R.Mirjalolova Mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasi moduli T.: Iste’dod, 2018. – 257 bR\

2.M.Usmonova . O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar Ta’lim texnologiyalari. 2016 yil. 4-son.

3. M.Usmonova .Pedagogik jarayon loyixasi – mashg‘ulotlar samaradorligini ta’minlash vositasi sifatida Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar Xalqaro ilmiy konferentsiya. Toshkent. 25 may, 2017 yil

4.G.I.Xasanova “Ta’lim jarayonida dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari” Jizzax: 2020. 420 bet. 223-225b

5. www.ziyonet.uz

6.www.google.uzz